Buxgalteriya hisobi — xo'jalik yurituvchi subyektning mol-mulki, mablag'lari, xo'jalik operatsiyalari va moliyaviy natijalarini uzluksiz kuzatish, qayd etish, umumlashtirish hamda nazorat qilish tizimidir. Ushbu tizim yordamida korxonada faoliyati ustidan nazorat o'rnatiladi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur iqtisodiy axborotlar tayyorlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes subyektlari faoliyatini tashkil etishda buxgalteriya hisobini yuritishning zarurligi va uning ahamiyati to'g'risida qator iqtisodchi olimlar tomonidan quyidagi fikr va mulohazalar bildirilgan.

Iqtisodchi olim A.R. Ahmedov tomonidan "to'g'ri yuritilgan buxgalteriya hisobi korxonada mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va noqonuniy operatsiyalarning oldini olish imkonini beradi. Ayniqsa, korxonada faoliyatining shaffofligini ta'minlash investorlar va kreditorlar uchun muhim mezon hisoblanadi" [5], deb ta'kidlangan.

Iqtisodchi olim S.T. Juraev esa, "hisob yuritishda ichki nazorat tizimi orqali korxonada aktivlarini saqlash, moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish, hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishini hamda moddiy javobgar shaxslar faoliyati ustidan doimiy nazorat olib borilishini ta'minlash mumkin" [6], deb ta'kidlagan.

Iqtisodchi olim Q.X. Mamatov esa, "buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish xo'jalik operatsiyalarini tezkor qayd etish, moliyaviy hisobotlarni avtomatik shakllantirish va soliq hisob-kitoblarini aniq yuritish imkonini beradi hamda inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi" [7], deb talqin qilgan.

Iqtisodchi olim N.B. To'xtaev esa, "buxgalteriya hisobi ma'lumotlari korxonada rahbariyatining strategik qarorlar qabul qilishida asosiy axborot manbai hisoblanadi" [8], deb ta'kidlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkil etishda buxgalteriya hisobini yuritishning ahamiyati masalasi zamonaviy yondashuvlar va ilmiy manbalar asosida o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish, kuzatish hamda qayd etish usullari, shuningdek, iqtisodiy baholash metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biznes subyektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning asosiy maqsadi korxonada faoliyatini moliyaviy jihatdan nazorat qilish va manfaatdor tomonlarni ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Mazkur ma'lumotlardan korxonada rahbariyati, ta'sischilar, investorlar, banklar, soliq organlari va auditorlar foydalanadi.

Korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Dastlab korxonaning hisob siyosati ishlab chiqiladi. Hisob siyosati korxonada buxgalteriya hisobini yuritish usullari va qoidalarini belgilovchi ichki me'yoriy hujjat hisoblanadi. Unda amortizatsiya hisoblash usuli, tovar-moddiy zaxiralarni baholash tartibi, hujjatlar aylanishi va hisobot tuzish qoidalari belgilanadi.

Biznes subyektlarida buxgalteriya hisobi dastlabki hujjatlar asosida yuritiladi. Har bir xo'jalik operatsiyasi albatta hujjat bilan rasmiylashtirilishi kerak. Masalan, mahsulot sotib olishda hisob-faktura, material qabul qilishda dalolatnoma, ish haqi hisoblashda tabel va hisob-kitob vedomosti tuziladi.



Hozirgi kunda biznes subyektlarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish keng rivojlanmoqda. “1C”, “SAP”, “Didox”, “ERP” kabi dasturlar yordamida hisob-kitoblar tez va aniq amalga oshirilmoqda. Elektron hisob tizimlari quyidagi afzalliklarni beradi:

- hisob-kitob tezlashadi;
- inson omili kamayadi;
- xatolar qisqaradi;
- hisobotlar tez shakllanadi;
- ma'lumotlar xavfsizligi oshadi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etishda ichki nazorat muhim o'rin tutadi. Ichki nazorat korxonalarining saqlanishi, hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va noqonuniy operatsiyalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Biznes subyektlarida buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. To'g'ri yuritilgan buxgalteriya hisobi korxonalar mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qiladi, moliyaviy intizomni mustahkamlaydi va noqonuniy operatsiyalarning oldini olishga yordam beradi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining shaffofligi investorlar va kreditorlar uchun muhim mezon hisoblanadi¹. Buxgalteriya hisobini tashkil etishda ichki nazorat tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki nazorat korxonalar aktivlarini saqlash, moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish va hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishini ta'minlaydi. Masalan, kassadagi naqd pul mablag'lari muntazam inventarizatsiya qilinmasa yoki ombordagi mahsulotlar nazoratsiz qolsa, moddiy zarar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli korxonalarda moddiy javobgar shaxslar faoliyati ustidan doimiy nazorat olib boriladi².

Zamonaviy biznes subyektlarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish jarayoni keng rivojlanmoqda. Elektron buxgalteriya dasturlari xo'jalik operatsiyalarini tezkor qayd etish, moliyaviy hisobotlarni avtomatik shakllantirish va soliq hisob-kitoblarini aniq yuritish imkonini beradi. Masalan, avtomatlashtirilgan hisob tizimlari yordamida bir necha kun talab qiladigan moliyaviy hisobot qisqa vaqt ichida tayyorlanishi mumkin. Bu esa mehnat unumdorligini oshiradi va inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi³.

Buxgalteriya hisobi korxonalar rahbariyatining strategik qarorlar qabul qilishida asosiy axborot manbai hisoblanadi. Mahsulot tannarxi, foyda miqdori, xarajatlar tarkibi, pul oqimlari va rentabellik ko'rsatkichlari asosida korxonalar rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi. Masalan, ma'lum mahsulot turi zarar bilan ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, rahbariyat uni ishlab chiqarishni qisqartirish yoki tannarxni kamaytirish bo'yicha qaror qabul qilishi mumkin⁴.

Korxonalarda buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarga mos ravishda yuritilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) investorlar va xorijiy hamkorlar uchun moliyaviy axborotlarning tushunarli va taqqoslanadigan bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi yoki xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun xalqaro standartlar asosida hisobot yuritish muhim talab hisoblanadi⁵.

Buxgalteriya hisobi tizimi korxonada soliq intizomini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Soliq hisob-kitoblarining noto'g'ri yuritilishi jarimalar, penya va moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli korxonalar buxgalterlari soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni muntazam kuzatib borishi va hisobotlarni belgilangan muddatlarda topshirishi zarur.

Zamonaviy sharoitda buxgalteriya hisobi faqat xo'jalik operatsiyalarini qayd etish vositasi emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladigan muhim axborot tizimidir. Korxonalar rahbariyati buxgalteriya ma'lumotlari asosida daromadlar, xarajatlar, foyda, tannarx, pul oqimlari, qarzdorlik va moliyaviy barqarorlikni baholaydi. Masalan, mahsulot tannarxining oshishi, debitor qarzdorlikning ko'payishi yoki pul oqimlarining kamayishi buxgalteriya hisobida aks etadi va rahbariyatga tezkor choralar ko'rish zarurligini bildiradi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobining har bir yo'nalishi korxonalar faoliyatining muayyan iqtisodiy jarayonlarini nazorat qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, asosiy vositalar, zaxiralar va pul mablag'lari hisobining aniq yuritilishi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Moliyaviy natijalar hisobi esa foyda va rentabellik darajasini aniqlash imkonini beradi (1-jadval).

1 Ahmedov A.R. *Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish*. - Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2021. - 35–44-betlar.

2 Juraev S.T. *Ichki nazorat va audit asoslari*. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. - 71–82-betlar.

3 Mamatov Q.X. *Axborot texnologiyalari asosida buxgalteriya hisobi*. - Toshkent: "Innovatsion rivojlanish", 2022. - 94–103-betlar.

4 To'xtayev N.B. *Boshqaruv hisobi va strategik qarorlar*. - Toshkent: "Iqtisodiyot", 2021. - 118–127-betlar.

5 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 14-iyundagi 56-son buyrug'i. *Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish tartibi to'g'risida*. - Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021. - 5–12-bandlar.



1-jadval

Buxgalteriya hisobi yo'nalishlarining korxonada moliyaviy faoliyatidagi ahamiyati tahlili⁶

No	Hisob yo'nalishi	Amaliy misol	Moliyaviy ko'rsatkich	Korxonada uchun ahamiyati
1	Asosiy vositalar hisobi	Texnologik uskuna xaridi	850 mln so'm	Ishlab chiqarish quvvatini oshiradi
2	Tovar-moddiy zaxiralar hisobi	Ombordagi xomashyo qoldig'i	12 500 kg xomashyo	Ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi
3	Pul mablag'lari hisobi	Bank hisobvarag'idagi mablag'lar	1,2 mlrd so'm	To'lov qobiliyatini nazorat qiladi
4	Ish haqi hisobi	60 nafar xodimning oylik ish haqi	Oyiga 360 mln so'm	Mehnat xarajatlarini boshqaradi
5	Debitor qarzdorlik hisobi	Xaridorlarning qarzdorligi	540 mln so'm	Pul tushumlarini nazorat qiladi
6	Kreditor qarzdorlik hisobi	Yetkazib beruvchilarga qarzdorlik	430 mln so'm	Moliyaviy majburiyatlarni baholaydi
7	Soliq hisobi	QQS va foyda solig'i	145 mln so'm	Soliq intizomini ta'minlaydi
8	Xarajatlar hisobi	Bir dona mahsulot tannarxi	85 000 so'm	Narx siyosatini belgilaydi
9	Moliyaviy natijalar hisobi	Yillik sof foyda	980 mln so'm	Rentabellik darajasini baholaydi
10	Inventarizatsiya	Ombordagi kamomad	3 mln so'm	Moddiy javobgarlikni nazorat qiladi
11	Moliyaviy hisobot	Choraklik tushum	4,8 mlrd so'm	Investorlar uchun axborot taqdim etadi
12	Avtomatlashtirilgan hisob tizimi	Elektron hisobotni tayyorlash vaqti	3 kun o'rniga 2 soat	Hisob yuritish tezligi va aniqligini oshiradi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish korxonada faoliyatining qonuniyligi hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday biznes subyekti o'z xo'jalik operatsiyalarini belgilangan tartib asosida hisobga olishi, moliyaviy natijalarni haqqoniy aks ettirishi va davlat organlariga ishonchli hisobotlar taqdim etishi lozim. Shu sababli, buxgalteriya hisobini yuritishda qonunchilik va milliy standartlar asosida belgilangan talablar mavjud.

Buxgalteriya hisobining biznesdagi o'rni uning moliyaviy axborotlarni shakllantirish, nazorat qilish va tahlil qilish vazifalarida namoyon bo'ladi. Har bir korxonada faoliyatida pul mablag'lari, materiallar, asosiy vositalar, ish haqi, soliqlar, kreditlar va daromadlar harakati mavjud. Ushbu jarayonlar hujjatlar asosida hisobga olinmasa, korxonaning moliyaviy holatini aniq baholash imkonsiz bo'ladi. Shu sababli, buxgalteriya hisobi biznes boshqaruvi uchun «moliyaviy tili» sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobining huquqiy asoslari "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun bilan belgilanadi. Mazkur Qonunning maqsadi buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda buxgalteriya hisobi subyektlari, hisob siyosati, buxgalteriya hujjatlari, aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish hamda moliyaviy hisobotni tuzish bilan bog'liq asosiy qoidalar belgilangan⁷.

Buxgalteriya hisobining ahamiyati, avvalo, moliyaviy intizomni ta'minlashda ko'rinadi. Hisob tizimi orqali korxonada mablag'larining kirimi va chiqimi, xarajatlarning asoslanganligi, shartnoma majburiyatlarining bajarilishi va aktivlarning saqlanishi nazorat qilinadi. Masalan, ombordagi materiallar qoldig'i buxgalteriya ma'lumotlari bilan solishtirilsa, kamomad yoki ortiqcha qoldiq aniqlanishi mumkin. Bu esa ichki nazoratni kuchaytiradi.

Buxgalteriya hisobi investorlar va kreditorlar uchun ham muhim axborot manbai hisoblanadi. Investor korxonaga mablag' kiritishdan oldin uning foyda darajasi, aktivlari, majburiyatlari va pul oqimlarini tahlil qiladi. Bank esa kredit ajratishdan oldin korxonaning to'lov qobiliyatini baholaydi. Shuning uchun moliyaviy hisobotlarning ishonchli va shaffof bo'lishi korxonaning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi.

Bugungi kunda buxgalteriya hisobi xalqaro standartlar asosida rivojlanmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari moliyaviy axborotlarning dunyo miqyosida taqqoslanishi va tushunarligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611-son qarorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga

6 Muallif ishlanmasi

7 O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RBQ-404-son Qonuni. *Buxgalteriya hisobi to'g'risida*. - Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2016. - 1-12-moddalar.: <https://lex.uz/docs/-2931253>



o'tishni jadallashtirish, xorijiy investorlar uchun zarur axborot muhitini yaratish va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilangan⁸.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining rivojlanishi axborot texnologiyalari bilan uzviy bog'liqdir. Elektron hisob-fakturalar, onlayn soliq hisobotlari, buxgalteriya dasturlari, ERP tizimlari va bulutli xizmatlar hisob jarayonlarini tezlashtirmoqda. Avvallari bir necha kun davomida tayyorlanadigan hisobotlar avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida qisqa vaqt ichida shakllanadi. Bu esa inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi va hisob ma'lumotlarining aniqligini oshiradi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari ham hisob tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobining milliy standartlari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir minimal talablarni belgilaydi. Xususan, 1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va hisob siyosatini shakllantirish tartibini belgilaydi⁹.

Buxgalteriya hisobining ijtimoiy ahamiyati ham mavjud. Ish haqi, ijtimoiy ajratmalar, soliq to'lovlari va xodimlar bilan hisob-kitoblar buxgalteriya hisobi orqali amalga oshiriladi. Bu esa xodimlarning iqtisodiy huquqlarini himoya qilish, davlat budgetiga tushumlarni ta'minlash va ijtimoiy majburiyatlarni bajarishga xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda biznes subyektlarida buxgalteriya hisobining asosiy yo'nalishlari, ular bilan bog'liq amaliy ko'rsatkichlar va iqtisodiy natijalar sonli misollar asosida keltirilgan. Jadval korxonada faoliyatida buxgalteriya hisobining qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini aniq ko'rsatib beradi (2-jadval).

2-jadval

Korxonalarda buxgalteriya hisobi jarayonlarini tashkil etish va yuritish bosqichlari tahlili¹⁰

№	Jarayon bosqichi	Amaliy operatsiya	Miqdor / sonli ko'rsatkich	Qo'llanilgan hujjat	Yakuniy natija
1	Hisob siyosatini ishlab chiqish	Amortizatsiya usulini belgilash	5 yil foydalanish muddati	Hisob siyosati buyrug'i	Yagona hisob tizimi yaratiladi
2	Dastlabki hujjatlashtirish	Xomashyo xarid qilish	145 mln so'm	Hisob-faktura	Operatsiya rasmiylashtiriladi
3	Ombor hisobiga qabul qilish	Material qoldig'i	18 500 kg	Qabul qilish dalolatnomasi	Ombor nazorati ta'minlanadi
4	Ikkiyoqlama yozuv	Debet/kredit operatsiyasi	Dt 1010 – Kt 6010	Memorial order	Hisob bog'liqligi saqlanadi
5	Ish haqi hisoblash	75 nafar xodimning oylik ish haqi	525 mln so'm	Tabel va vedomost	Mehnat xarajatlari aniqlanadi
6	Soliq hisob-kitobi	QQS hisoblash	92 mln so'm	Soliq deklaratsiyasi	Byudjet bilan hisob-kitob yuritiladi
7	Asosiy vositalar hisobi	Uskuna amortizatsiyasi	Oyiga 12 mln so'm	Inventar karta	Aktivlarning eskirishi hisoblanadi
8	Debitor qarzdorlik nazorati	Xaridorlar qarzi	640 mln so'm	Shartnoma va hisobvaraq	Pul tushumi nazorat qilinadi
9	Kreditor qarzdorlik	Yetkazib beruvchilar qarzi	410 mln so'm	To'lov topshiriqnomasi	Majburiyatlar nazorat qilinadi
10	Inventarizatsiya	Ombordagi kamomad	4,5 mln so'm	Inventarizatsiya dalolatnomasi	Moddiy javobgarlik kuchayadi
11	Moliyaviy natijalarni aniqlash	Sof foydani hisoblash	1,15 mlrd so'm	Foyda va zarar hisoboti	Rentabellik baholanadi
12	Moliyaviy hisobot tayyorlash	Choraklik tushum	6,8 mlrd so'm	Buxgalteriya balansi	Investorlar uchun axborot yaratiladi
13	Ichki audit tekshiruvi	Noto'g'ri xarajatning aniqlanishi	16 mln so'm	Audit xulosasi	Moliyaviy intizom mustahkamlanadi
14	Elektron hisob tizimi	Hisobot tayyorlash vaqti	4 kun o'rniga 3 soat	ERP dasturi	Tezkorlik va aniqlik oshadi
15	Strategik boshqaruv qarori	Xarajatlarni qisqartirish	11 % kamayish	Tahliliy hisobot	Korxonada foydasi oshadi

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarori. *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*. - Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2020. - 1–5-bandlar.: <https://lex.uz/docs/-4746047>

9 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 144-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 1-sonli BHMS. *Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati*. - Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2024. - 1–8-bandlar.A

10 Muallif ishlanmasi



Yuqoridagi jadvalda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish jarayonining asosiy bosqichlari sonli ko'rsatkichlar asosida tizimli ravishda aks ettirilgan. Jadval orqali xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirishdan boshlab moliyaviy hisobotlarni shakllantirishgacha bo'lgan jarayonlarning o'zaro bog'liqligi hamda korxonalar faoliyatidagi iqtisodiy ahamiyati yaqqol ko'rinadi. Buxgalteriya hisobi tizimining samarali tashkil etilishi korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu jadvalda buxgalteriya hisobining barcha asosiy bosqichlari real iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'langan holda aks ettirilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, hujjatlashtirish, schyotlarda aks ettirish, inventarizatsiya va moliyaviy hisobot tuzish jarayonlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, korxonaning umumiy moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantiradi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishga qo'yiladigan talablar korxonalar faoliyatining shaffofligini, moliyaviy ma'lumotlarning ishonchligini va nazorat tizimining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu talablar "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, BHMS va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida belgilanadi.

Ayniqsa, avtomatlashtirilgan hisob tizimlari va ichki audit mexanizmlarining qo'llanilishi buxgalteriya hisobining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Natijada moliyaviy xatolar kamayib, korxonalar faoliyatining shaffofligi va iqtisodiy barqarorligi kuchaymoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes subyektlari faoliyati mamlakatimiz iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish va hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Biznesda buxgalteriya hisobi nafaqat xo'jalik operatsiyalarini qayd etish vositasi, balki korxonalar faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish va nazorat qilishning samarali mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi moliyaviy natijalarni aniq hisobga olish, xarajatlarni optimallashtirish hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa hisobchi mutaxassislardan buxgalteriya hisobining nazariy va amaliy asoslarini puxta egallashni talab etadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining rivojlanishi axborot texnologiyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uni amaliyotga qo'llash natijasida buxgalteriya hisobotlari avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida qisqa vaqt ichida shakllanadi. Bu esa inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi va hisob ma'lumotlarining aniqligini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash va zamonaviy boshqaruv tizimlaridan foydalanish sharoitida biznes subyektlari faoliyatini tashkil etishda buxgalteriya hisobini amaldagi talablar asosida yuritish boshqaruvni optimallashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va kichik biznes subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RBQ-404-son Qonuni.. – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2016. – 1–12-moddalar.: <https://lex.uz/docs/-2931253>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori. – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2020. – 1–5-bandlar.: <https://lex.uz/uz/docs/-4746047>
3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 144-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 1-sonli BHMS. "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati". – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2024. – 1–8-bandlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 14-iyundagi 56-son buyrug'i. "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish tartibi to'g'risida". – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021. – 5–12-bandlar.
5. Ahmedov A.R. Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2021. – 35–44-betlar.
6. Juraev S.T. Ichki nazorat va audit asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. – 71–82-betlar.
7. Mamatov Q.X. Axborot texnologiyalari asosida buxgalteriya hisobi. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish", 2022. – 94–103-betlar.
8. To'xtayev N.B. Boshqaruv hisobi va strategik qarorlar. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2021. – 118–127-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>